

ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING BOG'LANGAN NUTQNI SHAKLLANTIRISH BO'YICHA ISHNI TASHKIL ETISH.

Zoyirova Dilnoza Zohid qizi
Nizomiy nomidagi O'zMPU
Surdopedagogika yo'nalishi
3-bosqich talabasi

Annotasiya

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda bog'langan nutqni shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayonining muhim yo'nalishlaridan biridir. Ushbu jarayon bolalarning eshitish qoldig'idan samarali foydalanish, nutqiy ehtiyojini oshirish va muloqot madaniyatini rivojlantirishga qaratiladi. Bog'langan nutqni shakllantirishda maxsus pedagoglar vizual ko'rsatmalar, eshitish-ovoz mashqlari, mimika, imo-ishora vositalari, artikulyatsion mashqlar hamda darsning o'yin shaklidagi metodlaridan keng foydalanadilar.

Kalit so'zlar: eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar, artikulyatsiya mashqlari, imo-ishora vositalari, eshitish qoldig'i, mimika, bog'langan nutq, muloqot, nutq, eshitish, ovoz, o'yin, grammatika, og'zaki nutq, yozma nutq.

Kirish

Hozirda kar o'quvchilarning bog'langan nutqini rivojlantirish zamonaviy maxsus ona tili o'qitish metodikasini eng dolzarb muammolaridan biridir. Bog'langan nutq mantiq, grammatika, kompozitsiya qonunlari asosida tuzilgan bo'lib, o'zida bir butunlikni aks ettiradi, u mavzuga ega ma'lum vazifani bajaradi. Yozma va og'zaki nutqni tuzilishi va vazifalari ularni rivojlantirish yo'llarida haqidagi psixologik ma'lumotlar kar bolalarni o'qitish jarayonida o'qituvchi tomonidan qo'llanishi shart. Karlar maktabida bog'langan monologik nutqni rivojlantirishni asosiy vazifasi-bolalarni o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini istaklarini bir nechta gaplarda ifodalab berishga o'rgatish, shuningdek bolalarni o'z taassurotlari, kechinmalari, ko'rgan filmini, bajargan ishlari va hayotlaridagi barcha hodisalar haqida bir muncha kengaytirilgan monologni ko'rishga, ya'ni matn tuzishga, fikr bildirishga o'rgatishni ko'zda tutadi. Bunda monologik nutqni asosiy 3 turi ishlatiladi. Bayon etish tasvirlash, mulohaza.

Asosiy qism

Ommaviy maktablarda ham maxsus maktablarda ham boshlang'ich sinflarda aralash shakl ustunlik qiladi, unda tasvirlash va bayon etish elementlari, bayon etish va mulohaza elementlari birgalikda uchraydi, chunki kichik o'quvchilar faqat tasvirlash yoki mulohazani talab qilib bulmaydi, bayon etish, tasvirlash mulohaza bir-biridan tuzilishi, mazmuni va tili bilan farq qiladi. O'quvchilarni bog'langan nutqini

rivojlantirishdagi guruh va individual farqlanishlar o'qitish jarayonida differensiallashgan yondashuvni tashkil etishni talab etadi, bu esa har bir o'quvchiga qulay ish tempini yaratishga, uning mazmunini mustaqillik darajasini, shuningdek birinchi bosqichdan keyingisiga o'tishini, rivojlantirish tizimlashtirilgan bo'limi va bilim beruvchi tushda bo'lishi kerak, faqat shundagina o'quvchilar yuqorida sanab o'tilgan bilimlarni egallab olishlari mumkin. Kar bolalar maktabida o'qitish predmet faoliyat va ehtiyotlar asosida ushbu faoliyatdan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda bog'langan nutqni rivojlantirish uchun ishni tashkil etish quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi: nutqni anglash va talaffuzini shakllantirish, nutqning grammatik tuzilmasini rivojlantirish va muloqot ko'nikmalarini oshirish. Ushbu ishni tashkil etishda individual yondashuv, maxsus mashg'ulotlar, ko'rgazmali vositalar va oila bilan hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

1. Nutqni anglash va talaffuzni rivojlantirish

Aktiv tinglashni o'rgatish: Bolaga ovozlarni ajratish, ularning manbasini aniqlash va turli tovushlarni qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar o'tkaziladi.

Ko'rgazmali vositalardan foydalanish: Rasm kartochkalari, so'zlar va tovushlarning ko'rgazmali namoyishi orqali nutqni anglashni yaxshilash.

Talaffuzni mashq qildirish: Ovozli va jarangsiz undoshlar, undalarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatish, maxsus mashqlar va mashqlar tizimi.

Nutqni ko'rish bilan bog'lash: Og'iz harakatlarini tushuntirish va ko'rsatish, ularni ovoz bilan bog'lash.

2. Nutqning grammatik tuzilmasini rivojlantirish

So'zlarning mantiqiy bog'lanishini shakllantirish: Soddagina gaplar tuzishdan boshlab, asta-sekin murakkab tuzilmalarga o'tiladi.

Gap qismlarini ajratish: Ot, fe'l, sifat kabi gap qismlarini ajratish va ularning gapda tutgan o'rnini tushuntirish.

Gaplarni to'g'ri tuzish: Gapning grammatik jihatdan to'g'ri tuzilishini o'rgatish va xatolarni tuzatishga yordam berish.

Nutqni takomillashtirish: Nutqning mantiqiy uzluksizligini, ravonligini va grammatik to'g'riligini oshirish.

3. Muloqot ko'nikmalarini oshirish

Suhbatlashishni o'rgatish: Oddiy suhbatni boshlash, savol berish va javob berish ko'nikmalarini shakllantirish.

Matnni o'qish va tushuntirish: Matnlarni o'qish, ularning mazmunini tushuntirish, qahramonlar taassurotlarini muhokama qilish.

Ijodiy ishlarni tashkil etish: Hikoya yaratish, she'rlar yodlash, dramatik rollarni ijro etish.

Kuzatuvchanlikni rivojlantirish: Atrof-muhitdagi voqealarni kuzatish, ularga munosabat bildirish va gapirish.

4. Umumiy tavsiyalar

Individual yondashuv: Har bir bolaning individual ehtiyojlari, qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ish olib borish.

O'yin shaklidan foydalanish: O'yin orqali mashg'ulotlar bolaning qiziqishini oshiradi va uni o'qishga jalb qiladi.

Oilaviy hamkorlik: Ota-onalarga bolaga uyda yordam berish bo'yicha ko'rsatmalar berish va ularning ishtirokini ta'minlash.

Maxsus jihozlar: Maxsus elektron jihozlar, dasturlar va moslamalardan foydalanish

Kar o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish bo'yicha qo'yilgan barcha talablar bog'langan nutqga ham aloqador shuningdek bu talablarni amalga oshirish uchun ish turlari zarurdir. Ularning biri maktab dasturida bayon etilgan. Kar o'quvchilarni bog'langan nutqga o'rgatishning barcha bosqichlari asosiy maqsadga bo'ysunadi: ularda mustaqil, ijodiy mantiqan qurilgan fikrlashni va shu asosida ifodali bog'langan nutq i rivojlantirish ya'ni og'zaki va yozma. Bunday katta va murakkab maqsadga erishish yo'lida o'qituvchi bog'langan nutqni rivojlantirish bo'yicha butun ish tizimini chuqur va oldindan o'ylab olish lozim, uni rejalashtirishi talab etiladi. Tizim o'z ichiga bolalarni yosh xususiyatlariga ega bo'lgan barcha ish turlarini olishi lozim. Bog'langan nutqni rivojlantirish bo'yicha ishlarini rejalashtirish o'qituvchiga insholar klassifikatsiyasi yordam beradi.

Xulosa

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda bog'langan nutqni shakllantirish jarayoni maxsus pedagogik yondashuv va tizimli rejalashtirilgan ta'limiy ishlarni talab qiladi. Ushbu jarayonning samaradorligi, avvalo, vizual ko'rgazmalilik, mimika va imo-ishora vositalaridan to'g'ri foydalanish, shuningdek, eshitish qoldig'ini samarali rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarning muntazam tashkil etilishiga bog'liqdir.

Nutqni shakllantirishda lug'at boyligini kengaytirish, grammatik tuzilmani o'rgatish, situatsion va kontekstual muloqotni qo'llab-quvvatlash, mustaqil fikrlashni rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Surdopedagog, ota-ona va logopedning hamkorlikda ishlashi bola nutqiy rivojining uzluksiz bo'lishini ta'minlaydi.

Shu tariqa, bog'langan nutq ustida olib boriladigan rejalashtirilgan, individual xususiyatlarni hisobga olgan, kommunikativ faoliyatga yo'naltirilgan pedagogik ishlar eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvi, ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli qo'shilishlari va kelajakda mustaqil hayotga tayyor bo'lishlarida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Ona tili o'qitish maxsus metodikasi. Z. N. Mamarajabova Toshkent 2023 y

2. Ona tili o'qitish metodikasi. Ra'no Inog'omova, Muhabbat Abduraimova Toshkent-2009y
3. Pedagoglar. org. uz sayti
4. Dilfuzakhan I. METHODOLOGIES FOR THE FORMATION OF COMMUNICATION SKILLS OF STUDENTS WITH HEARING IMPAIRMENT IN NATIVE LANGUAGE LESSONS //Web of Teachers: Inderscience Research. – 2025. – T. 3. – №. 2. – C. 5-8.
5. Isoqjonova D. M., Safarova A. ESHITISHIDA NUQSONI BO 'LGAN BOLALARDA BOG 'LANGAN NUTQINI RIVOJLANTIRISH //International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences. – 2025. – C. 148-152.
6. Dilfuzakhan I. METHODOLOGIES FOR THE FORMATION OF COMMUNICATION SKILLS OF STUDENTS WITH HEARING IMPAIRMENT IN NATIVE LANGUAGE LESSONS //Web of Teachers: Inderscience Research. – 2025. – T. 3. – №. 2. – C. 5-8.
7. Isoqjonova D. M., Safarova A. ESHITISHIDA NUQSONI BO 'LGAN BOLALARDA BOG 'LANGAN NUTQINI RIVOJLANTIRISH //International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences. – 2025. – C. 148-152.